

YETUKLIK DAVRIDA XULQ - ATROFDAGI O‘ZGARISHLAR.

ADPI Urayimjonova O‘lmaxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada yetuklik davrida sodir bo‘ladigan ijtimoiy o‘zgarishlar, organizmdagi fiziologik holatlar, bilish jarayonlarining o‘zgarib turishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: akne, psixika, akmeologiya, inqiroz, bilish jarayonlari.

Ma’lumki, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiqot etishga mo‘ljallangan fanlardan biri psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tadbqiq etish ko‘lami kengayib borishi uning mas’uliyati va nufuzi ortayotganidan dalolat beradi. Xudi shu bois psixolog mutaxassislariga nisbatan ijtimoiy buyurtmlarning ko‘payishi ularning hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo etmoqda. Istiqlol sharofati tufayli ilmiy yondashuvlar oldingi metadologik muommolarga xolisona munosabatda bo‘lish imkoni vujudga keladi. Shu munosabati bilan bugungi kunda yurtimizda psixologik ilmiy izlanishlar kun sayin jadallik bilan olib borilmoqda. Xususan biz bugun so‘z yuritadigan yetuklik davri haqida ham ko‘lab ilmiy tadqiqotlar mavjud.

Yetuklik davri ancha murakkab davrdir, bu davrda shaxs ham jismoniy, ijtimoiy jihatdan yetuklikka yetgan, jamiyat fuqarosi hamda saylash huquqini qo‘lga kiritgan bo‘ladi. Bu davrda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g‘alabalar yoki muvaffaqiyatsizlar kishining ruhiy dunyoqarashiga qattiq ta’sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag‘rurlik, jahldorlik, asabiylik paydo bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida yosh o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lib hozirgi zamon kishilarining o‘rtacha umr ko‘rishi XX-asr boshlaridagiga nisbatan, qariyb bir yarim ikki marta o‘zgarganini o‘z ifodasini topgan. Qadimgi greklar yetuklik davrini "akne" deb atashgan, cho‘qqi, oliy bosqich, gullagan davr degan ma’nomlarni anglatadi. [1.118b] A. Nafar. Ribnikov "1920 - yillarda katta odamlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan yosh psixologiyasi sohasini akmeologiya" [1. 117b] deb atagan. Bu g‘oya so‘nggi 10 yillikda akmeologiyaning insonni yetuklik davridagi rivojlanish qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadigan mustaqil, ilmiy fanga aylanishiga sabab bo‘ldi. Yetuklik davri asosan, uch bosqichda namoyon bo‘ladi.

1-bosqich: Ilk yetuklik davri

2- bosqich: O‘rta yetuklik davri

3- bosqich: keksalik davri

Ilk yetuklik ya’ni yoshlik davri 23 - 28 yoshlardan iborat bo‘lib, bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iborat. Yoshlik davri insonning kuch - quvvatga, orzu - havasga, ijodiy rejalarga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Yoshlik davrida yigit - qizlar kamolotiga 3 ta muhim psixologik mexanizm ta’sir ko‘rsatadi:

1) mehnat jamoasi;

2) oila muhiti;

3) ulfatlar davrasi;

Bu jarayonlar ya’ni yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvi, ijtimoiy faoliyatga kirishishini eng yuqori cho‘qissi 25 yosh deb belgilanadi. [2.199b] Olimimiz V. Shevuk ham bu yosh bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib o‘tkan. Ilk yetuklik ya’ni yoshlik bosqichida yoshlar asosan, saylov huquqiga ega bo‘lishi, to‘liq huquqiy va iqtisodiy javobgarligi, ijtimoiy faollikning barcha turlari bilan shug‘ullanish imkonitlari paydo bo‘ladi. Bu bosqichda hayotiy muhim qarorlar qabul qilinadi, kasbiy ta’lim olish tugab, kasbiy faoliyat egallanadi, muloqot doirasi shakllanadi. Dastlabki inqiroz ilk yetuklikka o‘tishda, 20 - 22 yoshda namoyon bo‘ladi va bu inqiroz "ota - ona ildizlaridan bo‘linish" inqirozi deb ataladi. [2.198b]

2 - bosqich, o‘rta yetuklik bosqichi sanalib, kamolot topishning bu bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishga, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli ko‘ngilsizliklar vujudga kelganini anglay boshlaydi. O‘ziga o‘zi hisob bera boshlaydi. Organizmdagi ayrim o‘zgarishlar, umrning tez o‘tishi, kishini qattiq tashvishga

va iztirobga soladi. Bu yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g’alabalar yoki muvaffaqiyatsizlar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta’sir etadi, natijada unda takabburlik, mag’rurlik hislari paydo bo’ladi, o’zining boshqalardan ustun qo’ya boshlaydi, yoki hayot zahmatlariga, narsa va hodisalarga nisbatan loqaysizlik vujudga keladi. Boshqa davrlarda bo’lgani kabi bu davrda ham bir necha inqirozlar sodir bo’ladi. Bu davrda inqirozlarning kechishi davomiyligi shaxsiy hayotdagi sharoitlarga bog’liqdir. 30 yoshlar - o’rta yetuklik, "oltin yoshga" olish yuqori darajada ishchanlik davri. 30 yosh inqirozi -to’plangan tajriba asosida hayotiy rejalarini karreksiya qilish vazifalari bilan bog’liq, kasbiy faoliyat va oilada tartibli va oqilona hayot strukturasi yaratishi bilan bog’liqdir. Shunday qilib, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush iker - chikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar.[3. 45-50b]

Yetuklik davrining so’nggi oxirgi bosqichi, qarilik va keksayish bosqichi sanalib, asosan 36 - 55 (60) yoshdagi erkak va ayollarni o’z ichiga oladi. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr - qimmatiga, tevarak - atrofga, o’zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar.[4.210b] Yetuklik davrining bu bosqichida qarilik alomatlari ko’proq o’rin egallab boradi. Uning boshlanish nuqtasi 45 -50-yoshlar oraligini belgilaydi. Yu. N. Kulyutkin bir xil yosh davrdagi odamlarda har xil jarayonlar, holatlar, xossalar xususiyatlarning o’sishi, o’zgarishi barobar emas, balki ularning birovda oldin xotira, keyin tafakkur, boshqa birovda aksincha, rivojlanishini, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisini jadal sur’at bilan o’sishini ta’kidlaydi. Yetuklik davrida erkak va ayollarning o’zligini anglashi asosan, "Men" ko’rinishida ifodalanadi.[4.207b] Insonning keksayishi ham quvonchli ham o’kinchilik damlarga, kechinmalarga, his - tuyg’ularga serobligi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda,, yetuklik davri eng katta davrlardan sanaladi. Bu davr 3 bosqichga bo’linishi bilan boshqa davrlardan farqlanib turadi. Bu davrning har bir bosqichida insonning rivojlanish xususiyatlari, xulq - atvoridagi o’zgarishlar, mehnat jarayonlaridagi faolliklari, bunda sodir bo’ladigan qiyinchiliklar, psixikasidagi bir qancha o’zgarishlar, kuch - quvvati, aqliy faoliyati, bilish jarayonlaridagi o’zgarishi, yosh o’tkan sari kuch - quvvati, ishchanlik faoliyati, tafakkur, xotira kabi holatlarning susayishi yuzaga keladi. Boshida aytib o’tkanimizdagi umur ko’rishning o’rtacha hisobi, asosan, yetuklik davrida erkak va ayollarning jismoniy baquvvatligi, ma’naviyati va ruhiyati tetikligi, ijtimoiy faollikni susaytirish haqida so’z bo’lishi mumkin emasligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vasila Karimova " Psixologiya", Toshkent, 2000y.C. 117-118-betlar
2. G’oziyev. E. "Umumiy psixologiya", 1 - kitob, Toshkent, 2004yil N-1.C.198-199-betlar
3. M. G. Davletshin. " Umumiy psixologiya ", Toshkent, 2002yil 11-son 45-50-betlar
4. G’oziyev. E. " Yosh davrlar psixologiyasi", Toshkent. 2007y.207-210-betlar